

MA'NAVIY-MA'RIFIY TADBIRLARNING TALABALAR TARBIYASIDAGI MUHIM XUSUSIYATLARI

Gulhayo Normo'minova

Uz-Fin PI, gulhayo90@gmail.ru

Annotatsiya: *Mazkur tadqiqotda talabalarni tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ahamiyati haqida atroflicha fikrlar bildirilgan. Ma'lumki, yosh avlod ma'naviy ruhiyatini tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, turli bayramlarni nishonlash, yoshlar tarbiyasida alla, ertak, xalq maqol va matallaridan, qo'shiqlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ushbu izlanishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning talaba tarbiyasidagi muhim qirralari va o'rni batafsil yoritishga harakat qilganmiz.*

Kalit so'zlar: *tarbiya, bayram, tadbir, ruhiyat, milliy, qadriyat, meros, an'ana, ma'rifat, marosim, .*

Yangi O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy va madaniy sohalarda yo'lga qo'yilgan islohotlar jarayonida yoshlar masalasiga, talabalar e'tiborjuda yuqoridir. Albatta, bu bejiz emas, chunki, porloqkelagimiz yoshlar qo'lidadir.

Ma'naviyatli ota-ona farzandlarini insonparvar, vatanparvar, axloqiy jihatdan pok, bilimli, kamtar, olijanob qilib tarbiyalaydi. Aynan shu qadriyatlar oilada ota-ona, katta yoshdagi a'zolari ta'sirida shakllanadi. Bu burchni sharaf bilan ado etish oilada yosh avlod ongiga avlodlar shajarasi, kasb-kori, urf-odatlar, an'analari, tarbiya usullari, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, o'ziga xos ijobiy tarixini singdirish, undan g'ururlanish hissini tarbiyalashdan boshlanadi. O'z ota-onasidan, oilasi, avlod-ajdodlari tarixidan g'ururlangan inson o'z o'lkasi, millati, xalqi, tili, dini, madaniyatidan g'ururlanish, uni avaylab-asrash, dunyoga ko'z-ko'z qilishi tabiiydir. Buning uchun oilada bolaning ongiga yoshlikdan boshlab «Sen tarixi boy, ulug' millatning farzandisan», «Sen ulug' mutafakkirlar, allomai – zamonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan bobokalonlarning ajdodisan», «O'zbek xalqi boy ma'naviyatli, vatanga, xalqqa, sadoqatli xalq», «Bizning mamlakat dunyoda tabiati eng go'zal, boy diyor» kabi tushunchalarni singdirib bormoq lozim.

Bugun Prezidentimiz o'z ma'ruzalarida yoshlar tarbiyasi masalalariga barchaning diqqatini qaratayotgani bejiz emas. Ayniqsa, «butun dunyoda murakkab va tahlikali vaziyat hukm surayotgan hozirgi vaqtda yoshlar hayotiga tahdid solayotgan xavf-xatarlarning oldini olish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish» [1; 35] dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki, XXI asrda yashab samarali mehnat qilish, O'zbekistonning buyuk kelajagini bunyod etish asosan bugungi yosh avlod zimmasiga tushadi. Shuning uchun yoshlarni chuqur bilimli, yuksak madaniyatli, mehnatsevar va tashabbuskor shaxslar etib shakllantirish oilada hayot tajribasiga ega, turmushning achchiq - chuchugini ko'rgan, qiyinchiliklarda toblangan yoshi ulug'larimiz, faxriylarimiz va ota-onalarning, shu bilan birga, mazkur ishga da'vat etilgan tarbiyachilar va jamoatchilikning asosiy vazifasi.

Sir emaski, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning mazmun va ma'naviy va moddiy qadriyatlarga beparvolik oila ma'naviyatiga salbiy ta'sir etuvchi illatlar. Buning oldini olishning muhim vositalaridan biri oilada bo'sh vaqtni samarali tashkil etishdan iborat.

Yosh avlod ma'naviy ruhiyatini tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, turli bayramlarni nishonlash, yoshlar tarbiyasida alla, ertak, xalq maqol va matallaridan, qo'shiqlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda har bir fuqaroning ma'naviy ruhiyatini tarbiyalashga erishish Davlatimiz tomonidan oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan birini tashkil etadi. Bu boradagi ishlarning tamal toshlari aynan oilada qo'yiladi, mahalla va jamoatchilik unga ko'mak beradi.

Ma'naviy jihatdan qudratli davlat iqtisodiy jihatdan kuchli bo'lib ketishi mumkin. Ma'naviy boy xalq o'z mamlakati oldida turgan tarixiy vazifani to'g'ri anglab yetsa, davlatning ma'naviy salohiyati yanada kuchayadi.

Oilaviy tarbiyaning o'ziga xos sharqona jihatlarini yoritib beruvchi ko'plab asarlar borki, ularda oldinga surilgan ma'naviy-axloqiy qarashlar hanuz to'la o'rganilib, amaliyotga qo'llanilgani yo'q. Bularni chuqur o'rganib, istiqloq nuqtai nazaridan tahlil etsak, milliy-axloqiy qadriyatlarning yangi-yangi qirralarini kashf etgan va amalda qo'llash imkoniga ega bo'lgan bo'lamiz. Bu o'rinda venger sharqshunosi Xerman Vamberning Oltin O'rdadagi o'zbeklarning musulmoncha tarbiyalanganligi haqida fikrlari juda qimmatli. «U o'zbeklarning qator axloqiy fazilatlarini haqida to'xtalib, ularning oilaviy munosabatlardagi pokligini, mulohaza va andisha bilan to'g'ri so'zlashini, ota-onaga hurmatini, bola tarbiyasidagi halolligi va adolatligini alohida ta'kidlab o'tgan edi» [3; 78].

Oilaviy muhitda bola ma'naviy tafakkurini tarbiyalashda inson ikki bor katta pedagogik xatoga yo'l qo'yishi mumkin:

Birinchisi – bolani hali yosh deb, ularga ishonmaganida.

Ikkinchisi – keksalarni qari deb, ularni chetga surib qo'yishganda.

O'zbek yoshlarining ma'naviy tarbiyasida bu axloqiy xislatlarga katta ahamiyat beriladi, uni oilada har bir yoshga har doim alohida ta'kidlab turiladi. Chunki, avlodlar vorisligi xuddi shunda ko'rinadi. Ota-onalarning farzandlariga, farzandlarning ota-onalarga g'amxo'rliqi ana shu ma'naviy axloqiy fazilatlarida bilinadi.

Talabalarni ma'naviy-ma'rifiy ruhda tarbiyalashda unga ta'sir etadigan barcha sohadagi o'zgarishlar va yangiliklar hayotda ko'zga tashlanadi. Talabalarni imon, vijdon, halollik, poklik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik singari xislatlarni shakllantirish, ta'lim-tarbiya sohasidagi asosiy maqsadlar hisoblanadi. Aqlan yetuk, axloqiy pok va jismonan baquvvat, shuningdek, milliy mas'uliyat tuyg'usini anglab yetgan yoshlarni tarbiyalab, voyaga yetkazgan mamlakatgina mustaqil va barqaror rivojlana oladi. Bu vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi oiladagi bolalarning ma'naviy tafakkurini to'g'ri tarbiyalashiga va ota-onaning anglab yetishiga bog'liqdir. Oilada eng avvalo, bolaning sog'lom o'sishiga va uni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga e'tibor beriladi.

Inson hamisha ijtimoiy munosabatlar ta'sirida bo'ladi va natijada shaxsning ma'naviy qiyofasi, dunyoqarashi, g'oya va tasavvurlari, hamda insoniy fazilatlari o'zgarib boradi. Oilaviy tarbiyadagi yangi mezonlar mustaqillik mohiyatini, zamon ruhiyatini, istiqbolini ifodalaydi. Ayniqsa oila va mahalla hamkorligi alohida ahamiyatga ega.

Oilada bola tarbiyasini yo'lga qo'yishda mahallaning roli benihoyat katta. Chunki, qadimdan o'zbek xalqi mahalla – ko'y va qo'ni – qo'shnilar bilan hamjihatlikda yashab kelgan.

Har bir oila biron-bir tadbir o'tkazmoqchi bo'lsa, avvalo mahalla bilan, uning obro'li oqsoqollari bilan maslahatlashgan, o'zlarining turli muammolarini shu yerda hal qilishga harakat qilganlar. Qayerda mahalladoshlar o'rtasida odamgarchilik, mehr-oqibat kuchli bo'lsa, u yerda mahalla-kuy va qo'ni-qo'shnilar bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor bergan. Yosh oilalar uchun turli maslahatlarini darig' tutmagan. Eng muhimi, mahalla faoliyatida erkaklar ham, ayollar ham baravar ishtirok etganlar. Shunga ko'ra, mahalaning har bir oilaga bo'lgan ta'siri ijobiy darajada sezilarli bo'lib kelgan.

Mahalla faoliyati o'zbek xalqining ijtimoiy hayotida, yoshlarni ma'naviy tafakkurini tarbiyalashda muhim rol o'ynab kelganligi uchun ham u milliy qadriyat hisoblanadi. Ayni vaqtda mahallalarda yangi-yangi ma'naviy, ilmiy qadriyatlar vujudga kelgan, shakllangan va rivojlangan, u xalq hayotiga singib borgan.

Milliy mustaqillikka erishishimiz sharofati bilan milliy qadriyatlarimiz tiklanishi mahallalarning an'anaviy faoliyatini keng yo'lga qo'yishga imkon tug'ildi.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlar majmuasi negizida yirik ommaviy sport musoboqalari, qo'shiq bayramlari, ansambillarning ko'rik-tanlovlari, san'at bayramlari, iqtidorli ijodkorlar bilan o'tkaziladigan ijodiy kechalar, ilmiy musiqa, raqs, qo'shiq, milliy estrada san'atini keng targ'ib etishda qaratilgan maxsus teleko'rsatuvlar, teleradio darslari tashkil etish har bir fuqaro ma'naviy ongi va tafakkurini shakllantirishda ijobiy natijalar beradi.

Yosh avlod ma'naviy ruhiyatini tarbiyalashda ularga vatanparvarlik tarbiyasini berish muhim ahamiyat kasb etadi. Barkamol avlod axloq va yaxshi xulq birdaniga paydo bo'lmaydi. Xulq axloqiy mezonlari ko'hna ona zamin bilan, Vatan deb atalmish mo'jiza bir diyor bilan, uning jonli va jonsiz xilqati, dunyosi, havosi, bulog'i, daryolariga ruhiy rishtalar bilan bog'langan. Vatan ostonadan boshlanadi. Demak, Vatan oila ostonasidan boshlanadi. Vatanparvarlik, milliy g'urur, milliy o'zlikni anglash oilada shakllanmog'i lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Атаджанова Ш.А. Оилада ўспирин ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда миллий қадриятлардан фойдаланишнинг педагогик асослари: Пед.фанл.номз. ... дисс. автореф. – Т.: 2001. – 19 б.

2. Жамолитдинова О.Р. Ёшлар соғлом турмуш маданиятини ривожлантиришда узвийлик ва узлуксизлик тамойиллари амал қилишнинг педагогик механизмларини такомиллаштириш: Автореф. ... пед. фан. док. – Т., 2015. - 86 б.

3. Зуннунов А. Педагогика тарихи. -Тошкент: Янги асп, 2005.-211 б.

4. Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар // Масъул муҳаррир Н.Комилов. – Тошкент: Шарқ, 1996. – 66 б.

5. Имомназаров М.,Эшмуҳамедова С. Миллий маънавиятимиз асослари /Таҳрир ҳайъати Ҳ.Кароматов ва бошқ. –Тошкент: Тошкент Ислон университети, 2001. – 432 б.

6. Инамова М.О. Оилада болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда миллий қадриятлардан фойдаланишнинг педагогик асослари: Пед. фанл. докт. ... дисс. - Т., 1998. - 270 б.